

**OLIIY TA'LIMDA IQTISODIYOT SOHASIDAGI FANLARINI O'QITISHDA  
"2+1" INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI****Xolto'rayev Islom Ilhomovich***Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi**Umumiy fanlar kafedrası o'qituvchisi**Tel: +998951914109**E-mail: [kholturayevislom@gmail.com](mailto:kholturayevislom@gmail.com)**<https://orcid.org/0009-0009-8221-7222>***Annotatsiya**

*Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish jarayonida talabalar faolligini oshirish, ularning mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv hamda bilimlarni mustahkamlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "2+1" interfaol metodining pedagogik imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tajriba-sinov ishlari amalga oshirilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, talabalar ikki guruhga bo'linadi va har bir talaba o'tilgan mavzu yuzasidan ikkita to'g'ri hamda bitta noto'g'ri fikr tayyorlaydi. Qarshi guruh vakillari muhokama orqali noto'g'ri fikrni aniqlashga harakat qiladi. Tadqiqot natijalari ushbu metod talabalarning auditoriya faolligi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va test natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini tasdiqladi.*

**Kalit so'zlar:** *interfaol ta'lim, iqtisodiyot nazariyasi, faol o'qitish metodlari, tanqidiy fikrlash, talabalar faolligi, kooperativ ta'lim, pedagogik innovatsiya, 2+1 metodi.*

**Аннотация**

*В данной статье исследуются педагогические возможности интерактивного метода «2+1», направленного на повышение активности студентов, развитие логического мышления и закрепление знаний в процессе преподавания дисциплины «Экономическая теория» в высших учебных заведениях. Экспериментальная работа проводилась среди студентов очной и заочной форм обучения.*

**Ключевые слова:** *интерактивное обучение, экономическая теория, активные методы обучения, критическое мышление, активность студентов, кооперативное обучение, педагогические инновации, метод 2+1.*

**Abstract**

*This article examines the pedagogical effectiveness of the "2+1" interactive teaching method in teaching Economic Theory at higher education institutions. The method aims to increase student engagement, improve analytical and critical thinking skills, and strengthen*

*knowledge retention. Experimental work was conducted among full-time and part-time students.*

**Keywords:** *interactive learning, economic theory, active learning methods, critical thinking, student engagement, cooperative learning, pedagogical innovation, 2+1 method.*

## KIRISH

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va bilimlarini amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori nazariy bilim bilan bir qatorda muammolarni mustaqil hal qila oladigan va samarali hamkorlik ko‘nikmalariga ega mutaxassislarini talab qilmoqda. Shu sababli an’anaviy ta’lim yondashuvlaridan faol ta’lim metodlariga o‘tish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy qonuniyatlar va bozor mexanizmlarini o‘rganuvchi fundamental fan bo‘lib, uni o‘zlashtirish talabalardan iqtisodiy hodisalarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash va mustaqil xulosalar chiqarishni talab etadi. Shu bois mazkur fanni o‘qitishda talabalarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi metodlardan foydalanish muhimdir [2].

So‘nggi yillarda kooperativ ta’lim, muammoli ta’lim, debat, keys-stadi va gamifikatsiya elementlariga asoslangan metodlar keng qo‘llanilib, talabaning passiv tinglovchidan faol bilim yaratuvchi subyektga aylanishiga xizmat qilmoqda [3].

Mazkur tadqiqotda iqtisodiyot nazariyasi fanining amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan “2+1” interfaol metodining samaradorligi o‘rganiladi. Ushbu metod talabalarni bilimlarni qayta tahlil qilish, mantiqiy baholash va muhokama jarayonlariga faol jalb etadi. Tadqiqotning maqsadi “2+1” metodining talabalar bilim darajasi, auditoriya faolligi va test natijalariga ta’sirini aniqlashdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Interfaol ta’lim metodlari nazariyasi konstruktivistik yondashuvga asoslanib, bilimlarning talaba faol ishtiroki orqali shakllanishini e’tirof etadi [4]. Ushbu yondashuvning rivojlanishida J. Dyui, J. Bruner va L. Vygotskiylarning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. J. Dyui ta’lim samaradorligini amaliy faoliyat va muammoli vaziyatlarni hal qilish bilan bog‘lagan bo‘lsa [5], Vygotskiy bilimlarning ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishini asoslab bergan [6].

Kooperativ ta’lim bo‘yicha D. Johnson va R. Johnson tadqiqotlari hamkorlikka asoslangan o‘qitish individual ta’limga nisbatan yuqori natija berishini ko‘rsatgan [7]. Ularning fikricha, guruh faoliyat talabalar motivatsiyasi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

“2+1” metodining ayrim elementlari xalqaro amaliyotdagi “Two Truths and a Lie” usuliga yaqin bo‘lib, u dastlab kommunikativ treninglarda qo‘llanilgan, keyinchalik ta’lim jarayoniga moslashtirilgan [8]. Mazkur metod ma’lumotlarni tahlil qilish, faktlarni tekshirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, uning ayrim jihatlari Frank Lyman tomonidan ishlab chiqilgan “Think–Pair–Share” modeli bilan ham uyg‘unlashadi [9].

Iqtisodiyot fanlarini o‘qitish metodikasida ham interfaol metodlarning samaradorligi ko‘plab tadqiqotlarda tasdiqlangan. Talabalarning muhokama va tahlil jarayonlariga faol jalb etilishi bilimlarning uzoq muddat saqlanishiga yordam beradi [10]. So‘nggi yillarda gamifikatsiya, viktorinalar va jamoaviy raqobatga asoslangan metodlardan foydalanish natijasida talabalar motivatsiyasi hamda akademik natijalarning yaxshilangani qayd etilgan [11].

Bonwell va Eison faol o‘qitish metodlari talabalarning darsdagi ishtiroki, o‘zlashtirishi va o‘rganilgan materialni eslab qolishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlaganlar [12]. Shu sababli interfaol metodlar iqtisodiyot fanlarida nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida ham qaraladi [13].

Tengdoshlar orqali o‘qitish (“peer learning”) konsepsiyasi ham ushbu yo‘nalishda muhim o‘rin tutadi. E. Mazurning “Peer Instruction” modeli talabalar o‘rtasidagi fikr almashinuvi va o‘zaro baholash bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi [14].

“2+1” metodida talaba mavzu bo‘yicha ikkita to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri fikr ishlab chiqadi. Bu jarayon o‘rganilgan materialni qayta tahlil qilishni talab etadi. Qarshi guruh esa fikrlarni taqqoslash va tahlil qilish orqali xatoni aniqlaydi. Natijada talabalarning tanqidiy fikrlash va analitik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Metodning yana bir afzalligi unda hamkorlik va sog‘lom akademik raqobatning uyg‘unlashganligidir. Ta’lim psixologiyasida bunday yondashuv talabalarning motivatsiyasini oshiruvchi omillardan biri sifatida e’tirof etiladi [15].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqot iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan “2+1” interfaol metodining samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot Toshkent shahridagi oliy ta’lim muassasasida iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari ishtirokida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida kunduzgi va sirtqi ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalar tanlandi.

Tadqiqotda jami 66 nafar talaba ishtirok etdi:

- ✓ kunduzgi ta’lim shakli – 20 nafar talaba;
- ✓ sirtqi ta’lim shakli – 46 nafar talaba.

Mazkur tadqiqotda klassik nazorat va tajriba guruhlari tashkil etilmadi. Buning o‘rniga bir xil talabalar guruhi turli vaqt oralig‘ida kuzatildi. Ya’ni, talabalarning metod qo‘llanilishidan oldingi va keyingi natijalari o‘zaro taqqoslandi.

Kunduzgi ta’lim shaklida iqtisodiyot nazariyasi fanining amaliy mashg‘ulotlari davomida dastlabki 5 oy mobaynida an’anaviy metodlardan foydalanildi. Keyingi 3 oy davomida esa barcha amaliy mashg‘ulotlarda “2+1” metodi muntazam ravishda qo‘llanildi.

Sirtqi ta’lim shaklida metod muallif tomonidan olib borilgan 5 ta fandan 4 tasida qo‘llanildi. Bir fan bo‘yicha esa bir oy davomida ushbu metoddan foydalanilmadi. Bu holat metod samaradorligini qiyosiy baholash imkoniyatini yaratdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ✓ pedagogik kuzatish;
- ✓ taqqoslash;
- ✓ test natijalarini statistik tahlil qilish;
- ✓ auditoriya faolligini monitoring qilish;
- ✓ pedagogik eksperiment.

#### **“2+1” metodining mazmuni va amalga oshirish algoritmi**

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “2+1” metodi iqtisodiyot nazariyasi fanining amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llanildi.

Metod quyidagi bosqichlardan iborat:

#### ***1-bosqich. Guruhlarni shakllantirish***

Amaliy mashg‘ulot boshida talabalar sonidan kelib chiqib ikki guruhga ajratiladi. Har ikki guruh imkon qadar teng tarkibda shakllantiriladi.

#### ***2-bosqich. Individual tayyorgarlik***

Har bir talaba o‘tilgan mavzu bo‘yicha:

- 2 ta to‘g‘ri fikr;
- 1 ta noto‘g‘ri fikr

tayyorlaydi.

Mazkur fikrlar mavzuning asosiy tushunchalari, iqtisodiy qonuniyatlar, nazariyalar yoki iqtisodiy kategoriyalar bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.

#### ***3-bosqich. Taqdimot***

Guruh a‘zolari navbatma-navbat qarshi guruhga o‘zlari tayyorlagan uchta fikrni o‘qib eshittiradilar.

Fikrlar aralash tarzda beriladi va noto‘g‘ri fikrning qaysi biri ekanligi oldindan ma’lum qilinmaydi.

#### ***4-bosqich. Muhokama***

Qarshi guruhga 1 daqiqa vaqt beriladi.

Ular ushbu vaqt davomida:

- fikrlarni tahlil qiladi;
- iqtisodiy mantiq asosida baholaydi;
- noto‘g‘ri fikrni aniqlashga harakat qiladi.

5-bosqich. Javobni e‘lon qilish

Muhokama tugagach, guruh o‘z javobini bildiradi.

Agar noto‘g‘ri fikr to‘g‘ri aniqlansa, guruhga ball beriladi. Aks holda ball fikrlarni tayyorlagan guruh hisobiga yoziladi.

### **6-bosqich. Izohlash**

Har bir javobdan so‘ng o‘qituvchi qisqa izoh beradi va iqtisodiy mazmuni chuqurroq tushuntiradi.

Mazkur bosqich noto‘g‘ri tushunchalarning oldini olish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Tadqiqotning baholash mezonlari**

Metod samaradorligini aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tanlandi:

1. Auditoriya faolligi.
2. Talabalarning muhokamalardagi ishtiroki.
3. Oraliq nazorat testlari natijalari.
4. Mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi.
5. Talabalarning mavzuni eslab qolish darajasi.

Baholash jarayonida test natijalari asosiy kvantitativ ko‘rsatkich sifatida qabul qilindi.

Kunduzgi ta‘lim shaklida 20 ta test savolidan iborat oraliq nazorat natijalari tahlil qilindi. Sirtqi ta‘lim shaklida esa 10 ta test savolidan iborat nazorat ishlari natijalari o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi metodning o‘quv jarayonidagi real samaradorligini aniqlashga, talabalar faolligi va akademik natijalardagi o‘zgarishlarni obyektiv baholashga imkon yaratdi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqot davomida “2+1” metodining iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitish jarayonidagi samaradorligi kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllarida tahsil olayotgan talabalar misolida o‘rganildi. Natijalar auditoriya faolligi, talabalar ishtiroki hamda oraliq nazorat testlari ko‘rsatkichlari asosida baholandi.

### **Kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha natijalar**

Tadqiqotda kunduzgi ta‘lim shaklida tahsil olayotgan 20 nafar talaba ishtirok etdi. Dastlabki besh oy davomida amaliy mashg‘ulotlar an‘anaviy metodlar asosida olib borildi. Keyingi uch oy mobaynida esa barcha amaliy mashg‘ulotlarda “2+1” interfaol metodidan foydalanildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, metod joriy etilishidan avval talabalarning auditoriyadagi faolligi nisbatan past bo‘lib, mashg‘ulotlarda asosan ayrim faol talabalar qatnashgan. Ko‘pchilik talabalar muhokamalarda passiv ishtirok etgan yoki umuman fikr bildirmagan.

“2+1” metodining muntazam qo‘llanilishi natijasida deyarli barcha talabalar amaliy mashg‘ulotlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Har bir talaba o‘z fikrlarini tayyorlash, noto‘g‘ri ma’lumotni ishlab chiqish va boshqa talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarni tahlil qilish jarayonida bevosita qatnashdi.

Oraliq nazorat natijalari ham metod samaradorligini tasdiqladi.

### 1-jadval

#### Kunduzgi ta’lim shaklida oraliq nazorat natijalari

Ko‘rsatkich	Metod qo‘llanilishidan oldin	Metod qo‘llanilgandan keyin
Talabalar soni	20	20
Testlar soni	20 ta	20 ta
O‘rtacha to‘g‘ri javoblar soni	12,5 ta	17,5 ta
O‘zlashtirish darajasi	62,5 %	87,5 %
O‘shish ko‘rsatkichi	-	+25 %

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “2+1” metodidan foydalanish natijasida talabalarning o‘rtacha test natijalari 12,5 tadan 17,5 tagacha oshgan. Bu esa o‘zlashtirish darajasining 62,5 foizdan 87,5 foizga ko‘tarilganligini anglatadi.

Tahlillar davomida auditoriya faolligida ham sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, metod joriy etilishidan oldin mashg‘ulotlarda muntazam faol qatnashuvchi talabalar ulushi taxminan 45–50 foizni tashkil etgan bo‘lsa, metod qo‘llanilgandan so‘ng ushbu ko‘rsatkich 90 foizdan yuqori darajaga yetdi.

Kuzatishlar natijasida talabalar o‘rtasida iqtisodiy tushunchalarni izohlash, iqtisodiy kategoriyalarni taqqoslash va nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan bog‘lash ko‘nikmalarining rivojlangani aniqlandi.

#### *Sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha natijalar*

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi sirtqi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 46 nafar talaba ishtirokida amalga oshirildi.

Muallif tomonidan olib borilgan beshta fandan to‘rttasida “2+1” metodi qo‘llanildi. Bir fan bo‘yicha esa bir oy davomida an’anaviy metodlardan foydalanildi.

Mazkur holat metod qo‘llangan va qo‘llanilmagan fanlar natijalarini o‘zaro taqqoslash imkonini berdi.

Natijalar quyidagicha bo‘ldi.

**2-jadval**

**Sirtqi ta’lim shaklida test natijalari**

Ko‘rsatkich	Metod qo‘llanilmagan fan	Metod qo‘llangan fanlar
Talabalar soni	46	46
Testlar soni	10 ta	10 ta
O‘rtacha to‘g‘ri javoblar soni	5,5 ta	8,75 ta
O‘zlashtirish darajasi	55 %	87,5 %
O‘sish ko‘rsatkichi	-	+32,5 %

Natijalarga ko‘ra, metod qo‘llanilmagan fandagi o‘rtacha ko‘rsatkich 55 foizni tashkil etgan. “2+1” metodi qo‘llangan fanlarda esa o‘zlashtirish darajasi 87,5 foizga yetgan.

Talabalarning yarmi barcha savollarga to‘g‘ri javob bergan bo‘lsa, qolgan talabalar 10 ta savoldan o‘rtacha 7–8 tasiga to‘g‘ri javob topgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar metodning qisqa muddatli o‘quv jarayonida ham sezilarli natija berishini ko‘rsatadi.

***Auditoriya faolligi tahlili***

Pedagogik kuzatishlar natijasida auditoriya faolligi bo‘yicha ham muhim o‘zgarishlar qayd etildi.

**3-jadval**

**Talabalar faolligining o‘zgarishi**

Ko‘rsatkich	Metoddan oldin	Metoddan keyin
Muhokamada faol qatnashgan talabalar ulushi	48 %	95 %
Savol beruvchi talabalar ulushi	35 %	82 %
Mustaqil fikr bildiruvchi talabalar ulushi	40 %	90 %
Guruhiy muhokamalardagi ishtirok	50 %	100 %

Jadval natijalari “2+1” metodining talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdagi samaradorligini ko‘rsatdi. Metod davomida har bir talabaga individual vazifa yuklatilgani sababli barcha talabalar dars jarayoniga faol jalb qilindi.

**Muhokama**

Tadqiqot natijalari “2+1” metodining iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar kooperativ ta’lim nazariyasi [7], “Peer Instruction” modeli [14] hamda faol o‘qitish konsepsiyasi [12] natijalari bilan mos keladi.

Metodning samaradorligi, avvalo, talabalarning mavzuni mustaqil tahlil qilishi va o‘z fikrlarini shakllantirishiga bog‘liq. To‘g‘ri va noto‘g‘ri ma‘lumotlarni tayyorlash hamda ularni baholash jarayoni talabalarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi [16].

Shuningdek, metod iqtisodiy tushunchalar va qonuniyatlarni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Guruhlar o‘rtasidagi muhokamalar esa iqtisodiy tafakkur va tahliliy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Metodning yana bir afzalligi unda hamkorlik va sog‘lom raqobat elementlarining uyg‘unlashganligidir. Bu talabalar faolligi va darsga qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari, metodni qo‘llash uchun maxsus texnik vositalar yoki qo‘shimcha xarajatlar talab etilmaydi, bu esa uning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

### **XULOSA**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. “2+1” interfaol metodi iqtisodiyot nazariyasi fanining amaliy mashg‘ulotlarida talabalar faolligini sezilarli darajada oshiradi.
2. Metod talabalarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va iqtisodiy tushunchalarni izohlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.
3. Kunduzgi ta’lim shaklida o‘zlashtirish darajasi 62,5 foizdan 87,5 foizga oshgan bo‘lib, o‘shish 25 foizni tashkil etdi.
4. Sirtqi ta’lim shaklida metod qo‘llanilmagan fan bilan taqqoslaganda o‘zlashtirish darajasi 55 foizdan 87,5 foizga ko‘tarildi va o‘shish 32,5 foizni tashkil etdi.
5. Auditoriya faolligi, savol-javoblar soni va talabalar ishtiroki ko‘rsatkichlari sezilarli ravishda yaxshilandi.
6. “2+1” metodi iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘qitishda samarali pedagogik texnologiya sifatida tavsiya etilishi mumkin.
7. Kelgusida mazkur metodning boshqa iqtisodiy fanlar, masofaviy ta’lim va raqamli ta’lim platformalaridagi samaradorligini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
2. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
4. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive and Individualistic Learning. – Boston: Allyn and Bacon, 1999. – 397 p.

5. Bonwell C.C., Eison J.A. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. – Washington DC: ASHE-ERIC Higher Education Report, 1991. – 121 p.
6. Mazur E. Peer Instruction: A User's Manual. – New Jersey: Prentice Hall, 1997. – 253 p.
7. Slavin R.E. Cooperative Learning: Theory, Research and Practice. – Boston: Allyn and Bacon, 2014. – 336 p.
8. Prince M. Does Active Learning Work? A Review of the Research // Journal of Engineering Education. – 2004. – Vol. 93. – №3. – P. 223–231.
9. Freeman S., Eddy S.L., McDonough M. et al. Active Learning Increases Student Performance in Science, Engineering and Mathematics // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2014. – Vol.111. – №23. – P. 8410–8415.
10. Lyman F. Think-Pair-Share: An Expanding Teaching Technique // Maryland University Press. – 1981. – P. 109–113.
11. Barkley E.F., Cross K.P., Major C.H. Collaborative Learning Techniques. – San Francisco: Jossey-Bass, 2014. – 364 p.
12. Brookfield S.D. Teaching for Critical Thinking. – San Francisco: Jossey-Bass, 2012. – 320 p.
13. Nilson L.B. Teaching at Its Best. – San Francisco: Jossey-Bass, 2016. – 432 p.
14. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – Berkshire: Open University Press, 2011. – 479 p.
15. Ambrose S.A., Bridges M.W., DiPietro M. et al. How Learning Works. – San Francisco: Jossey-Bass, 2010. – 336 p.
16. Brown P.C., Roediger H.L., McDaniel M.A. Make It Stick: The Science of Successful Learning. – Cambridge: Harvard University Press, 2014. – 313 p.